

MARKAZIY OSIYO TARIXIY-GEOGRAFIYASIDA ORIYLAR MUAMMOSI

Roziqov Muzaffar Mo'min o'g'li

Termiz davlat muhandislik va agrotekhnologiyalar universiteti talabasi

Xoliyarov To'liqjon Chorshanbiyevich

*Ilmiy rahbar: Termiz davlat muhandislik va
agrotekhnologiyalar universiteti kafedra mudiri*

Annotatsiya: *Oriylar muammosi Markaziy Osiyo tarixshunosligidagi eng bahsli masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek xalqi etnogenezi masalasida bronza davri aholisi va Andronovo madaniyatining prototurk tilida so'zlashganligi haqidagi qarashlar ilmiy bahslarni kuchaytirdi. Mazkur maqolada ushbu konsepsiyaning metodologik asoslari tarixshunoslik tahlili, manbashunoslik va qiyosiy usullar asosida tanqidiy baholanadi.*

Kalit so'zlar: *oriylar muammosi, etnogenez, prototurk nazariyasi, Markaziy Osiyo, tarixshunoslik, o'zbek xalqi*

KIRISH

Oriylar muammosi ikki asrdan ortiq vaqt davomida jahon tarixshunosligida muhim ilmiy masala bo'lib kelmoqda. Mustaqillikdan keyingi davrda Markaziy Osiyo xalqlari tarixini qayta ko'rib chiqish jarayonida milliy etnogenez masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Materiallar va metodlar

Tadqiqot davomida tarixshunoslik tahlili, qiyosiy tahlil, manbashunoslik usuli va interdisiplinar yondashuv qo'llanildi.

Natijalar

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, arxeologik topilmalar orqali muayyan til yoki etnik mansublikni aniqlash cheklangan. Nazariyada xronologik nomuvofiqliklar va lingvistik asoslarning zaifligi kuzatildi.

Muhokama

Oriylar (ot) – “oriy” so'zi “erkin” degan ma'nosida tarjima qilinadi. “Avesto”ga ko'ra, oriylar ijtimoiy hayotda jamoaning erkin, ozod, jangovar mulkdorlar tabaqasi bo'lib, mana shu tabaqa va uning oila a'zolari o'z urug'-aymoqlaridan farqli o'laroq “ozodlar”, ya'ni “oriylar” deb yuritilgan.

Ular yashagan yurt oriylar Vatani, oriylar kengligi, ya'ni “Aryanam Vaychay” deb nomlangan. Oriylar Markaziy Osiyo chorvador qabilalarining iqtisodiy yuksalishidagi ko'chmanchilik hayot bosqichining ijtimoiy mahsuli, ularning tashabbuskor va ishbilarmon qatlami, endi shakllanib kelayotgan sinfiy jamiyatning aslzodalar tabaqasi edi.

A.Asqarov fikricha, tarixiy tilshunoslik va arxeologik tadqiqotlar natijasida eroniy til sohiblari bo'lmay, balki turkiyda so'zlashganligi aniqlangan.

Miloddan avvalgi II ming yillikning o'rtalarida Yevrosiyo cho'llarida oriylar o'z chorvalariga yangi yaylov qidirib, janubga tomon, nafaqat O'rta Osiyoning ichki hududlariga, hatto Eron va Hindistongacha kirib boradi. Chorvator oriylarning shimoliy mintaqalardan kelib Eron adirlariga o'rnashib qolgan joylar "Avesto"da "Ariana" nomini olgan. Demak, Eron "Ariana" so'zining yangi shaklidir. "Avesto" va "Rigveda"ga ko'ra, dastlab oriylar Eron va Hindistonga kelganda mahalliy aholiga nisbatan "begona", "kelgindi", "bosqinchi" ma'nosini anglatgan. Keyinchalik esa "xo'jayin", "aslzoda" ma'nosini kasb etgan.

Ahamoniy podsholari Kir II va Doro I qoyatoshlarga bitilgan yozuvlarida o'zining "haqiqiy oriy" ekanini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. "Oriy" atamasi dastlab ijtimoiy ma'noda qo'llangan, keyinroq esa ular mahalliy aholi bilan qorishib ketgach, bu so'z yangi etnik ma'no va mazmun kasb etdi, ulardan son jihatdan bir necha marta ko'p bo'lgan Eronning mahalliy aholisi til muhiti ta'sirida oriylar asta-sekin o'z tilini yo'qotib, eroniylashib ketadi.

A.Sagdullay fikricha, "Oriy - turkiylar" nazariyasi hozircha yetarli empirik asosga ega emas. Zamonaviy tarix fanida etnogenez ko'p bosqichli jarayon sifatida talqin qilinadi.

Xulosa

A.Sagdullay fikricha, Andronovo madaniyatini prototurk tilli oriylar sifatida talqin qilish yetarli ilmiy asosga ega emas. O'zbek etnogenezi ko'p bosqichli tarixiy sintez mahsuli sifatida baholanishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Askarov, A. A. (2015). O'zbek xalqining kelib chiqish tarixi.
2. Клейн, Л.С. (2007). Древние миграции и происхождение индоевропейских народов.
3. Ртвеладзе Э.В., Сагдуллаев А.С. (2007) Современные мифы о далеком прошлом народов Центральной Азии.
4. Sagdullayev, A. S. (2015). O'zbekiston tarixi, 3, 72–79.
5. Shoniyoov, K. (2001). O'zbek xalqining shakllanish jarayoni.
6. Tulkinjon, K. (2020). About historiography of historical geography of northern Bactria. Journal of Critical Reviews, 7(18), 748-758.